

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FANLAR INTEGRATSIYASINING
NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Maxammadiyeva Sevara Otabek qizi

E-mail: sevaramaxammadiyeva74@gmail.com

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası

Assistent o'qituvchisi

Umarova Dilafruz Anvarovna

E-mail: umarovadilaftuz@gamil.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida fanlar integratsiyasi jarayoni, uning didaktik asoslari, shakllari va zamonaviy ta'limdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, integratsiyalashgan ta'limning afzalliklari, muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqola amaliy misollar asosida boyitilgan hamda ilg'or xorijiy tajribalar bilan solishtirilgan.*

Kalit so'zlar: *integratsiya, boshlang'ich ta'lim, tarmoqlararo bog'liqlik, kompetensiya, ta'lim texnologiyalari, integrallashgan dars*

Abstract: *This article analyzes the process of subject integration in the primary education system, its didactic foundations, forms and role in modern education. It also considers the advantages, problems and ways to overcome them of integrated education. The article is enriched with practical examples and compared with advanced foreign experiences.*

Keywords: *integration, primary education, cross-sectoral connectivity, competence, educational technologies, integrated lesson*

Аннотация: *В статье анализируется процесс предметной интеграции в системе начального образования, ее дидактические основы, формы и роль в современном образовании. В статье также рассматриваются преимущества, проблемы и пути их преодоления интегрированного образования. Статья*



обогащена практическими примерами и сопоставлена с передовым зарубежным опытом.

Ключевые слова: интеграция, начальное образование, межсекторальная связь, компетентность, образовательные технологии, интегрированный урок

KIRISH.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda bilimlar bir butunlikda, o'zaro aloqadorlikda berilishi lozim. Shu jihatdan fanlar integratsiyasi — bolalarning hayotiy tajribasini boyitish, ularning tafakkurini rivojlantirish va bilimlarni uzviylikda shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Boshlang'ich sinflarda fanlar integratsiyasi muhim hisoblanadi. Masalan, Fanlar integratsiyasi — bu o'quv fanlari o'rtasidagi mavzular, kompetensiyalar, faoliyat turlari va natijalarning uyg'unlashuvi asosida o'quv jarayonini tashkil etishdir. Bu jarayon o'quvchida umumiy manzara, yaxlit bilim tizimimi chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi. Ta'limni tarbiyadan ajratib bo'lmaganidek integratsiyani ham fanlardan ajratib bo'lmaydi. Chunki, bu o'quvchi uchun ham dars jarayoning qiziqarli bolishiga ham muhimdir. Shunday ekan Integratsiyaning zarurati quyidagilardan iborat. Bilimlarni hayot bilan bog'lash. O'quvchilarni fanlarga qiziqtirish. Ōzlari qiziqmagan fanlarini boshqa ōzlari qiziqqan fan bilan integratsiyalashgan holda darslarni tashkil etish. Hozirgi kunda ōqituvchida oldindan kōra olish qobiliyati rivojlangan bo'lishi zarur. Chunki bazi bir ōquvchilar fanga qiziqishmasa boshqa sohalarda iste'dodi bo'ladi. Ona tili matematika yoki shunga o'xshash aniq fanlarga qiziqmagan ishtiyoqi yōq ōquvchilarning sport bo'yicha rasm chizish bo'yicha musiqa texnologiya narsa yasashlar bo'yicha iste'dodi yuqori bo'ladi. O'qituvchi esa buni kura olishi tōg'ri yunalatira olishi zarur. Bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish insoniyat yaratgan barcha madaniy boyliklarni bilish "ōz xotirangni boyitsanggina madaniyatli bōlasan" degan fikrga asoslangan. Ayniqsa tasavvurni uyōotuvchi ruhiy kechinmalarni faollashtiruvchi, shu bilan birga fikrlarni uyōotuvchi asarlar juda tarbiyaviydir. Bunday umumlashtirish bolani bilish va ruhiy rivojlanishning yangi pog'onasiga ko'taradi. Shu



asosda shakl mantiqiy tafakkur turli voqea hodisalar o'rtasida aloqalar va bog'liqliklarni ko'ra bilish o'rgana olish ko'nikmalari mustahkamlanadi va rivojlanadi. O'quvchi qarama qarshiliklarni topa bilish, ularning rivojlanish yo'nalishlarini to'g'ri tushunish va ularni o'z vaqtida yechish yo'llarini topishni o'rganadi. Integratsiya- $\dot{o}$ quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga yangicha yondashuv belgilab beradi. $\dot{O}$ quv jarayonida integratsiyalashgan talimdan foydalanishga katta ahamiyat berilyapti. Integratsiyalangan darslarning tuzilishi o'rganishning barcha bosqichlarida o'rganilayotgan mavzularning aniqligini va izchilligini puxta o'rganilganligini va o'zaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi o'quv materialining ixcham va yig'iq ekanligi undan tashqari, o'quv materialini o'rganishni tashkil etishning ba'zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin. Masalan 1-va 2-sinfdagi "Atrof-olam bilan tanishish" kursining barcha mavzulari bir biri bilan chambarchas bog'liq. 3-va 4- sinfdagi "Tabiatshunoslik" darslari "Atrof olam bilan tanishish" kursini davom ettiradi. Uning dasturiga tabiat va insonlar mehnatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish kiritilgan. O'quvchilar tomonidan atrof olamni o'rganish o'qish nutq o'stirish, matematika, mehnat ta'limi darslarida davom etadi. Hozirgi kunda axborot oqimi jadallashgan texnika taraqqiyotining yuqori darajada rivojlanganligi inson aqlini shoshirib qo'ymay iloji yo'q. Bu olamda o'z o'rnini topish muhim va shu bilan birga juda qiyin masaladir. O'quvchida o'qish faoliyati davrida juda ko'p ma'lumotlar olishi, atrof dan kelayotgan axborotlarning bosimi yuqorililigi uning ongiga ta'lim tarbiyasiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bu ma'lumotlar va axborotlarning qay biri birlamchi qay biri ikkilamchi ekanligini ba'zida o'quvchi anglamaydi ham. Shu sababdan o'quvchi mukammal bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Aynan integratsion darslarda olam haqidagi uzoq yuluq parchalangan bilimlardan farqli o'laroq bilimlar bir butun yaxlit tizimda beriladi. Dunyoni bir butun ko'rish yaxlit anglash muhim o'rin tutmoqda va bu yerda o'qituvchi bilimlarni bir biriga bog'lab tizim asosida bermo'gini taqazo etmoqda. Bu vazifani integratsion darslarda amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, o'quv yuklamasini optimallashtirish maqsadga muvofiq.

Ko'p fanli kompetensiyalarni shakllantirish (masalan: matematik savodxonlik + texnologik



tafakkur + til ko'nikmalari). Integratsiyalashgan fanlarda o'qitish shakllari judayam ko'p Boshlang'ich ta'limda integratsiya quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

1.Mavzuli integratsiya: Bir nechta fanlar bitta umumiy mavzu asosida uyg'unlashtiriladi. Masalan: "Oltin kuz" mavzusi atrofida tabiatshunoslik, adabiyot o'qish, rasm va mehnat darslari uyg'unlashtiriladi. Matematika va jismoniy tarbiya fanlarini estafetali musobaqalar bilan birlashtirib integratsiya qilish mumkin. Masalan: Karra jadvalini oson o'rganish tezroq va qiziqarli tarzda o'tkazish uchun 2 ta o'quvchini chiqarib karra jadvalidan savol javob qilib belgilangan joyga kim birinchi yetib kelish musobaqasini o'tkazsak bo'ladi. Bu integratsiyalangan dars karra jadvalini o'quvchilar ongida esda qolarli bo'lishiga va oson o'rganishlariga yordam beradi.

2.Faoliyatli integratsiya: O'quvchilar mustaqil loyihalar orqali turli fanlardan foydalanadi. Masalan, "O'zbekiston bo'yicha sayohat" loyihasi geografiya, matematika, texnologiya va ona tili fanlarini qamrab olishi mumkin.

3. Kompetensiyaviy integratsiya: Asosiy ta'lim kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan darslar tashkil etiladi. Bunda integratsiyaning afzalliklari yaxshi samara beradi.

O'quvchilarda fanlararo bog'liqlikni anglash shakllanadi.

Yaxlit dunyoqarash va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.O'quv jarayonining samaradorligi ortadi.Fanlarga qiziqish kuchayadi.Dars jarayonida zerikish kuzatilmaydi. O'qituvchi uchun darsni boyitish imkoniyati yaratiladi. Masalan, Amaliy misol: integrallashgan dars modeli.

Mavzu: "O'zbekiston tabiati".

Fanlar: Ona tili, tabiatshunoslik, texnologiya, rasm. Dars shakli: loyiha asosida integratsiyalashgan dars.

Faoliyatlar: Matnga asoslangan o'qish va tahlil (ona tili).

Hududlarning relyefi va hayvonot dunyosini o'rganish (tabiatshunoslik).
Xarita chizish, kollej (rasm, texnologiya).



Prezentatsiya tayyorlash. Bu jarayondagi barcha ishlar integratsiyalashgan dars jarayonining samarali o'tishini ta'minlaydi. Yuqoridagi amaliy misollar orqali berilgan loyihalar integratsiyalashgan axborot texnologiyalariga ham misol bo'la oladi. Finlandiya, Singapur va Kanada kabi rivojlangan ta'lim tizimlarida fanlar integratsiyasi asosiy yondashuv sifatida tan olingan. Ular o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, loyiha asosida ishlashi va kompetensiyalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. O'zbekiston ta'lim tizimi ham bu borada yangi o'quv dasturlar, metodik qo'llanmalar asosida bosqichma-bosqich yangilanmoqda. Yaqin yillardan buyon O'zbekiston ta'lim tizimiga ko'pgina o'zgartirishlar kiritilmoqda. Integratsiyalashgan talim ham xorijiy davlatlar orqali kirib kelgan.

Xulosa

Boshlang'ich ta'limda fanlar integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarda chuqur, hayotga yaqin bilimlar shakllantirish, kompetensiyalarni rivojlantirish uchun muhim vositadir. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, darsliklarni moslashtirish, metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva S. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari", Toshkent, 2020.
2. Karimov A. "Integratsiyalashgan o'qitish metodikasi", Samarqand, 2021.
3. Vygotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya", Moskva, 2005.
4. Dewey J. "Experience and Education", New York, 1938.
5. UNESCO report on education for sustainable development, 2020.
6. Shodmonov Yo.G'. "Ta'limda zamonaviy metodlar", Toshkent, 2019.
7. .R. Mavlyanova, N. Raxmanqulova "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiya integratsiya" Toshkent "Voriz-nashriyot" 2013.
8. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEUmarova,
9. Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF



TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403. SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.

7. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA IJTIMOYIY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.

8. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOYIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.